

**TALABALARDA TARIXGA DAXLDORLIK TUYG'USINI  
RIVOJLANTIRISHDA RESPUBLIKA MA'NAVIYAT VA MA'RIFAT  
MARKAZLARINING O'RNI**

*Azimov Muhammadi Azim o'g'li*

*SDVMCHBU TF o'qituvchisi*

*Azimova Nazokat Afzalovna*

*SDVMCHBU TF 1-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada talabalarda tarixga daxldorlik, nafaqat daxldorlik tarixga bo'lgan qiziqish qachon shakillanishi, tarixga daxldorlik tuyg'usini his qilishda Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazlarining o'rni ularning asosiy maqsadlari va hozirgi kunga qadar erishgan yutuqlari haqida ma'lumot beriladi. Maqolada Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazlarining talabalarda tarixiy ongni rivojlantirishdagi faoliyatini yanada takomillashtirish bo'yicha takliflar beriladi.

**Kalit so'zlar:** daxldorlik hissi, Ma'naviyat va ma'rifat markazlari, voqeylekka obyektiv va subyektiv qarash.

**Abstract.** This article provides information on when students develop a sense of involvement in history, not just involvement, but also interest in history, the role of the Republican Spirituality and Enlightenment Centers in developing a sense of involvement in history, their main goals and achievements to date. The article provides suggestions for further improving the activities of the Republican Spirituality and Enlightenment Centers in developing historical awareness in students.

**Keywords:** sense of belonging, Spirituality and enlightenment centers, objective and subjective view of the event.

**Аннотация.** В данной статье учащиеся информируются о значении истории, а не только интереса к истории, о том, когда формируется интерес к истории, о роли Республиканских центров духовности и просветительства в ощущении чувства интереса к истории, об их основных целях и достижениях на данный момент. В статье даются предложения по дальнейшему совершенствованию деятельности Республиканских центров духовности и просветительства по развитию исторического сознания студентов.

**Ключевые слова:** чувство принадлежности, центры духовности и просветительства, объективный и субъективный взгляд на событие.

Har bir inson borki o'z vataniga ega. O'z hayoti davomida qisqa vaqt ichida bo'lsa ham o'z Vataning tarixi haqida fikr yurutadi, ba'zi voqealiklarda qarama-qarshi fikrlarga duch kelganda o'ylanib qoladi. Tarix doimo insoniyatni o'ylantirgan, asl mohiyatni, voqealikka obyektiv va subyektiv yondashishga chorlagan. Talabalarda

tarixga daxldorlik tuyg‘usini rivojlantirish ma’lum bosqichlarni, strategiyalarni va qarashlarni o‘z ichiga oladi. Talabalarga bu tuyg‘uni his qildirishda ularning yoshlari, Oliy ta’lim muassasasining aynan qanday yo‘nalishida tahsil olayotganliklari, hozirgi kunda siyosiy va ijtimoiy yangiliklardan qanday manbalardan foydalangan holda xabardor bo‘layotkanliklari muhim ahamiyat kasb etadi.

### **Tadqiqot metodologiyasi.**

Ushbu mavzuni yoritish uchun quyidagi tadqiqot usullaridan foydalanishimiz mumkin. Talabalar o‘rtasida so‘rovnama, intervyu o‘tkazish va Ma’naviyat va ma’rifat markazlari tomonidan tashkil etiladigan turli tadbirlar va seminarlarda ishtirok etib jarayonni jonli ravishda kuzatish ushbu mavzuni o‘rganishning bir qismi bo‘lib xizmat qila oladi.

### **Adabiyotlar tahlili.**

Tarixga daxldorlik tuyg‘usini rivojlanishida adabiyotlar alohida o‘rin tutadi. O‘zbekiston tarixi darsliklari talabalarga milliy tariximiz haqida asosiy bilim beradi. Darsliklarda qadimdan hozirgi kungacha bo‘lgan tarixiy voqealar, shaxslar va davrlar haqida ma’lumotlar mavjud. Tarixiy romanlar, hikoyalar va she’rlar talabalarda tarixga bo‘lgan qiziqishni oshirishga yordam beradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning asarlari va nutqlari tarixga daxldorlik, milliy meros va ma’naviy qadriyatlarga katta e’tibor qaratadi. Xususan:

“Yangi O‘zbekiston strategiyasi” asarida mamlakatning yangi taraqqiyot bosqichida tarixiy merosni asrab-avaylash, milliy o‘zlikni anglash va yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash masalalariga alohida urg‘u beriladi.

3 jildan iborat bo‘lgn “O‘zbekiston tarixi” kitobi O‘zbekiston tarixining qadim zamonlardaan to hozirgi kungacha bo‘lgan davrini qamrab oladi. Kitob yurtimiz tarixini o‘rganishdagi asosiy manbalardan biri hisoblandi.

### **Tahlil va natijalar.**

Har bir insonning shaxsiy qiziqishlari va ehtiyojlari uni tarixga bo‘lgan munosabatini belgilaydi. Bu hissini shakillanishiga ta’sir etuvchi omillar turlicha va har bir insonga o‘z dunyoqarashidan kelib chiqqan holda ta’sir ko‘rsatadi. Talabalarda ko‘p hollarda tarixga daxldorlik tuyg‘usining shakillanishdagi ilk tamal toshi ularda tarixga bo‘lgan qiziqish tufayli qo‘yiladi. Ba’zi insonlar tarixga shunchaki o‘tmish deya ta’rif berishlari mumkin, ayrim insonlar uchun esa tarix bu o‘zlikni anglashning bir bo‘lagi. Ammo, bir narsa aniqki tarix turli vaziyatlarda qilingan turli xil hatti - harakatlarni teran fikrlash orqali kelajak hayotining ba’zi jabhalarida, shu jumladan siyosat darajasidagi qarorlar qabul qilishda o‘zining beqiyos o‘rni bilan ajralib turadi.

Ma’naviyat va ma’rifat markazlari O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994-yil 8-iyundagi 288-sun qarori bilan tashkil etilgan. Keyinchalik, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 28-iyuldagagi PQ-3167-sunli qarori

bilan Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi qayta tashkil etildi. Shuningdek O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi PF-5712 sonli farmoni bilan markazning faoliyati yanada takomillashtirildi[1].

Hozirgi kunda respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazlarining faoliyat yo'nalishlari quyidagilarni o'z ichiga oladi.

1. Milliy g'oya va ma'naviyatni targ'ib qilish.
2. Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash.
3. Tarixiy va madaniy merosni asrab-avaylash.
4. Aholining ma'naviy-axloqiy saviyasini oshirish.
5. Jamiyatda sog'lom turmush tarzini shakllantirish.

Ma'naviyat va ma'rifat markazlari respublika bo'ylab keng tarmoqqa ega. Ular turli tadbirlar, seminarlar, konferensiyalar, ko'rgazmalar va boshqa ma'naviy-ma'rifiy tadbirlarni tashkil etadi. O'zbekiston televideniyasi orqali efirga uzatiladigan "Ma'rifat" telekanali ham markaz tuzilmasi ichiga kiradi. "Tafakkur", "Jahon adabiyoti" jurnallari ham markaz tomonidan chop etiladi.

Ma'naviyat va ma'rifat markazlari talabalarda tarixga daxldorlik tuyg'usini rivojlantirishda muhim o'rinni tutadi. Markazlar faoliyatini yanada takomillashtirish, tadbirlar sifatini oshirish va yoshlar bilan ishslashning yangi usullarini joriy etish zarur. Talabalarning tarixga daxldorlik tuyg'usini rivojlantirishda oila, maktab va jamiyatning ham roli katta. Yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning milliy o'zligini anglashiga yordam berish va tarixiy merosni asrab-avaylash - har birimizning vazifamizdir.

Talaba tarixni o'rganib borar ekan, tarixga daxldorlik, hissi asta sekin paydo bo'la boshlaydi. Tarixiy muzeylar, madaniy meroslar, tarixiy haqiqatlar chuqur yoritilgan filmlar va qiziqish bilan olingen bilimlar bu tuyg'uning shakillanishiga o'z hissasini qo'shadi.

### Xulosha.

Tarix - bu shunchaki voqealar, sanalar va ismlar ro'yxati emas [4]. Bu o'tmish, hozir va kelajak o'rtasidagi tirik bog'liqlikdir. U bizning o'zligimizni anglash tuyg'usini oziqlantiradi, o'z yurtimizdan faxrlanish hissini kuchaytiradi va bizni bunyodkorlikka ilhomlanadiradi. Ma'naviyat va ma'rifat markazlari bu jarayonda muhim rol o'ynaydi. Tarixga daxldorlik tuyg'usini rivojlantirish orqali biz nafaqat vatanparvarlarni tarbiyalaymiz, balki o'z yurtining ravnaqi uchun mas'uliyatni his qiladigan fuqarolarni shakllantiramiz.

"Yangi O'zbekiston strategiyasi" kitobida quyidagi jumlalar keltiriladi - "Biz Yangi O'zbekistonni barpo etishda, avvalo, milliy o'zligimizni, qadimiy tariximiz va boy madaniy merosimizni mustahkam poydevor qilib olamiz. Shu bilan birga, zamonaviy ilm-fan yutuqlari va jahon tajribasidan keng foydalanamiz. Bizning asosiy maqsadimiz - yosh avlodni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, ularning milliy g'ururini

oshirish, ularni o'z yurtining munosib farzandlari etib voyaga yetkazishdir."[2].

Ushbu jumlalarda inson qanday yutuqlarga erishsa ham milliy o'zligini doimo qadrlashi kerakligi, hozirgi kunda milliy o'zlikni ta'minlashda madaniy meroslarimiz asos bo'lib xizmat qila olishi va yurtimiz tarraqiyoti yo'lida ilmli kadrlarni tayyorlash alohida ta'kidlanadi.

Inson yashar ekan doimo o'zining ma'lum bir joyga tegishli ekanini his qilib umr kechiradi. Ba'zilar bu hislarning asl mohiyatini tushunib ularni qadriyatlarga aylantiradilar va ularni avlodlari uchun meros qilib qoldiradilar. Tarix sahifalarga bitilganlarni o'chirib bo'lmydigan bir kitobdir [3], u o'zgarmay qolaveradi, haqiqatni so'zlashdan, insoniyatga asl voqealikni yetkazishdan charchamaydi, tarixning kuchini his qilish uchun unga nisbatan daxldorlik tuyg'usining inson qalbida yashayotganligi voqealikka teran nazar solishda asos bo'lib xizmat qila oaldi.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydag'i PF-5712 sonli farmoni bilan markazning faoliyati yanada takomillashtirish. (<https://lex.uz/ru/docs/-4312785>) [1].
2. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – T.: "O'zbekiston" nashriyoti, 2021. 464 bet. [2].
3. Hoshimov O. "Daftар hoshiyasidagi bitiklar" T.: "Nurli dunyo" nashriyoti, 2018. 64 bet.
4. Azim o'g'li, A. M. (2023). O'rta Osiyodagi birinchi uyg'onish davri yevropasentirizm va osiyosentrizm kontekstida. Yangi asr innovatsiyalari jurnali, 37 (2), 112-118.
5. Azimov, M. A. O. G. L. (2022). Ko'rfaz mamlakatlarida internet texnologiyasining rivojlanish dinamikasi (siyosiy va iqtisodiy sohalar misolida). Scientific progress, 3(3), 655-659.
6. Oglu, A. M. A. (2025). Specific Indicators of The Means of Forming a Sense of Relevance to National History. CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS, 6(03), 12-16.